

SOG‘LIQNI SAQLASHDA MOBIL GOSPITALARNING O‘RNI

Muyassarova M.M., Boltaboyev S.E.

*Toshkent tibbiyot akademiyasi (Toshkent,
O‘zbekiston)*

Tibbiyot sohasidagi asosiy kamchiliklardan biri bo‘lgan va bugungi kun uchun muhim bo‘lgan mobil diagnostika, zamonaviy davolash va tezkor tibbiy yordamning yangicha universal ko‘rinishi, vazifalari va ahamiyati yoritilgan.

Mobil gospital, universal tez tibbiy yordam, zamonaviy davolash, diagnostika, operatsion blok, zamonaviy tibbiy transport, zamonaviy tezkor tibbiy yordam.

Hozirgi davrda raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalari taraqqiyotga erishishning muhim shartlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar nafaqat davlat va jamiyat taraqqiyyotini yanada jadallashtiradi balki ijtimoiy sohada odamlarga katta qulayliklar yaratadi. Bundan tashqari raqamli texnologiyalar ijobiy iqtisodiy o‘shishga zamin yaratadi: mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi va yana bir muhim afzallik — korrupsiyaga chek qo‘yadi

Sog‘liqni saqlash tizimiga yangi tibbiy texnologiyalarining xususan zamonaviy mobil gospitalarning chuqur tatbiq etilishi bugungi kunda o‘z yechimini kutayotgan ko‘plab muammolarning

samarali hal qilinishiga zamin yaratadi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda birgina 2021-yilda O'zbekistonda 10 mingdan ortiq yo'l transport hodisasi sodir bo'lgan, unda 9 mingdan ortiq fuqaro jarohat olgan. Avariylar oqibatida 2,5 mingga yaqin inson halok bo'lgan, shundan 263 nafar yosh bola hisoblanadi. Bu raqamlar har bir insonning ko'nglini hira qilishi tabiiy. Tibbiyot sohasiga mobil gospitallarining kirib kelishi ushbu raqamlarning kamayishiga sabab bo'ladi. Mobil gospitallar tez tibbiy yordamning universal ko'rinishi bo'lib hodisa ro'y bergan joyga zudlik bilan yetib boradi va birinchi tez tibbiy yordam va bemor operatsiyaga muhtoj bo'lgan taqdirda hodisa joyida operatsiya qilinadi. Mobil gospitalda barcha zaruriy xizmatlar ko'rsatiladi va buning uchun to'liq jihozlangan. Jumladan barcha zaruriy texnik asbob-uskunalar, doimiy markaz bilan 24/7 online aloqa, harorat va barcha zaruriy dori-darmonlar bilan ta'minlanadi. Mobil gospitallar har qanday hududga har qanday sharoitda borish imkoniyatiga ega bo'lgan universal transport hisoblanadi. Bemor holati yashash hududiga va ro'y bergan hodisaga ko'ra mobil gospital tanlanadi. Mobil gospital va shu kabi loyihalarning amalga oshishi tibbiyot sohasida yangi o'zgarish va yuksalishni, insonlar hayotini saqlash kabi muhim masalalarni olg'a suradi. Mobil gospitallarning

tibbiyot sohasida yo'lga qo'yilishi inson qadrini ulug'lash yo'lidagi yana bir muhim qadamlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Zero, O'zbekistonning taraqqiyoti raqamli texnologiyalar va yangi o'zgarishlarning barcha soha va tarmoqlarga joriy etilishi va qo'llanishiga uzviy bog'liqdir.